

**THE ABSTRACT BOOK OF THE  
VI INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE “MODERN PHARMACEUTICS:  
ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”  
OCTOBER 17, 2025**





**MPHAPP**

THE 6TH INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE "MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL  
PROBLEMS AND PROSPECTS"  
TASHKENT, OCTOBER 17, 2025

in-academy.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE**

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**"FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR  
VA ISTIQBOLLAR"**

MAVZUSIDAGI VI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLAR  
TO'PLAMI

ABSTRACT BOOK OF THE 6TH INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE

**"MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL PROBLEMS AND  
PROSPECTS"**

МАТЕРИАЛЫ VI МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ  
КОНФЕРЕНЦИИ

**«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:  
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

Conference materials are indexed in the following databases:

**SIN  
DEX**

**OpenAIRE**

**Google  
Scholar**

**OJS  
OPEN JOURNAL SYSTEM**

**OPEN  
ACCESS**

**doi  
DIGITAL OBJECT  
IDENTIFIER**

**zenodo**

**«Innovative Academy RSC»  
Tashkent – 2025**



**«FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR»** mavzusidagi VI xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, (2025 yil 10-oktabr) - T.: Innovative Academy RSC, 2025

**«Eurasian Journal of Academic Research»** ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan №1415-sonli guvohnomaga ega.

Konferensiya tarkibidagi barcha materiallarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Sindex, Zenodo, Open Aire, Google Scholar**, xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

*Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.*

© Toshkent farmatsevtika instituti

© Innovative Academy RSC

© Mualliflar



**TAHRIR HAY'ATI****Rais:**

K.S.Rizayev – tibbiyot fanlari doktori

**A'zolari:**

N.S.Normaxamatov – kimyo fanlari doktori

M.T.Mullajonova – farmatsevtika fanlari nomzodi

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ****Председатель:**

Ризаев К.С. – Доктор медицинских наук

**Участники редколлегии:**

Нормахматов Н.С. – Доктор химических наук

Муллажонова М.Т. – Кандидат фармацевтических наук

**EDITORIAL BOARD****Chairman:**

Rizaev K.S. – Doctor of Medical Sciences

**Members of the editorial board:**

Normakhamatov N.S. – Doctor of Sciences in Chemistry

Mullazhonova M.T. – Candidate of Pharmaceutical Sciences

**Nashr etishda qatnashganlar:**

Akbarov Nurislom Axtamjon o'g'li, Toshxo'jayev Islomxo'ja Ilxom o'g'li, Akbarova Dilafruz Axtamjon qizi, Quchqarov Azamat Murotjonovich, Akbarova Dildora Axtamjon qizi

**В подготовке и издании сборника приняли участие:**

Акбаров Нурислом Ахтамжонович, Тошходжаев Исламходжа Илхомович, Акбарова Дилафруз Ахтамжоновна, Кучкаров Азамат Муротжонович, Акбарова Дилдора Ахтамжоновна.

**The following individuals participated in the preparation and publication of the conference proceedings:**

Akbarov Nurislom Akhtamjon ugli, Toshkhojayev Islomkhoja Ilkhom ugli, Akbarova Dilafruz Akhtamjon qizi, Kuchkarov Azamat Murotjonovich, Akbarova Dildora Akhtamjon qizi.

Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy Kengashining 2025 yil 27 sentyabrdagi 2-sonli qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Рекомендовано к печати решением №2 Ученого совета Ташкентского фармацевтического института от 27 сентября 2025 года.

Recommended for publication by decision No.2 of the Scientific Council of Tashkent Pharmaceutical Institute dated 27 September, 2025

**SHAMCHA DORI SHAKLINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI****Habibullayeva N.H.<sup>1</sup>****Ziyamuhamedova M.M.<sup>2</sup>**

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail nargizaxonhabibullayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17325238>

**Dolzarbligi:** Zamonaviy farmatsevtika sanoatida dori vositalarining yangi shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish soha rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Dorilarni qabul qilish qulayligi, biokirishuvchanligi, terapevtik samaradorligi va xavfsizligini oshirish muhim ilmiy-amaliy masala bo'lib qolmoqda. Farmatsevtika sanoatida shamcha dori shakli o'zining qulayligi va farmakokinetik xususiyatlari sababli dolzarbligini yo'qotmayapti. Chunki shamchalar orqali yuborilgan preparatlar me'da-ichak fermentlari ta'siridan va jigar orqali birlamchi metabolizmdan qisman chetlab o'tadi. Bu esa dori moddasining biokiraolishligini oshiradi. Bolalar, yoshi katta va yutish qiyin bo'lgan bemorlarda shamcha eng maqbul dori shakli hisoblanadi. Ayniqsa pediatriyada tez va samarali ta'siri uchun keng qo'llaniladi. Shamchalar orqali yuborilgan dori moddasi to'g'ri ichak shilliq qavati orqali tez so'riladi va qisqa vaqt ichida terapevtik konsentratsiyaga erishadi. Og'iz orqali yuborilgan preparatlarda kuzatiladigan me'da-ichakni bezovta qiluvchi ta'sirlar shamcha qo'llanganda deyarli uchramaydi. Hozirgi vaqtda shamchalarning yangi turdagi asoslari (polimer asosli, bioeriydigan, modifikatsiyalangan chiqarilishli) ishlab chiqilmoqda. Ular dori moddasini uzoq muddatli ajratish, yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish va bemor uchun maksimal qulaylikni ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, shamcha dori shakli nafaqat klassik pediatriya va terapiyada, balki ginekologiya, proktologiya va infeksiyon kasalliklarni davolashda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Farmatsevtik texnologiyalar rivojlanishi bilan shamchalarning yangi avlod turlari kelgusida yanada kengroq qo'llanishi kutilmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi:** Shamcha dori shaklining farmatsevtik va klinik afzalliklarini chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanish istiqbollari asoslab berish.

**Usul va uslublar:** Ilmiy adabiyotlar va O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi ma'lumotlarini tahlil qilish, dori vositalarining farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini qiyosiy baholash, shamcha ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari – bioeriydigan polimer asoslar, nanotizimlar, kombinatsiyalangan formulalar va 3D-printer texnologiyalarini o'rganish, klinik amaliyotda shamchalarning samaradorligi va xavfsizligini baholovchi tajribalar natijalarini tahlil qilish.

**Natijalar:** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shamchalar bir qator farmatsevtik afzalliklarga ega: Peroral qabul qilish mumkin bo'lmagan holatlarda (qusish, yutish refleksi buzilishi, hushsizlik) samarali alternativ dori shakli hisoblanadi, rektal yo'l bilan yuborilganda "birinchi o'tish effekti"ni chetlab o'tadi va dorilarning biokirishuvchanligini oshiradi, lokal va tizimli ta'sirni uyg'unlashtirib, yon ta'sirlarni kamaytiradi, bolalar va qariyalar uchun qo'llash qulayligi yuqori. So'nggi ilmiy ishlanmalar natijasida, bioeriydigan va bioyo'qotiladigan asoslar (polietilenglikol, polivinilpirrolidon va boshqalar) keng qo'llanila boshlagan. Nanotexnologik supozitoriylar ishlab chiqilgan bo'lib, ular dorini kerakli joyga yetkazib berish va nojo'ya ta'sirlarni kamaytirish imkonini beradi. Kombinatsiyalangan shamchalarda esa bir nechta faol moddalar sinergetik ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. 3D-printer texnologiyasi asosida tayyorlangan individualizatsiyalashgan shamchalar bemorning yoshi, vazni va kasallik turiga mos aniq dozani ta'minlamoqda. Klinik tadqiqotlarda



xavfsizligi yuqori, ayniqsa pediatriya va akusherlik amaliyotida qo'llash uchun mos yangi formulalar ishlab chiqilgan.

**Xulosa:** Shamcha dori shaklining rivojlanish istiqbollari farmatsevtika sanoati va klinik amaliyot uchun strategik ahamiyatga ega. Yangi polimer asoslar, nanotizimlar va 3D-printer texnologiyalarining qo'llanilishi shamchalarning sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, bioo'zlashtirilishini oshiradi va xavfsizligini ta'minlaydi.